

HAKAMLIK SUDINING HAL QILUV QARORI BO‘YICHA NIZOLASHISH VA UNING IJROSIGA OID ISHLARNI YURITISHDA VAKOLATLI SUDLARNING ROLI

Najmiddinova Farangiz Faxriddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish usullari” yo‘nalishi magistranti

E-mail: farangiznajmiddinova57@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari bo‘yicha nizolashish va ijro etish jarayonida vakolatli sudlarning rolini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda hakamlik qarorlarining huquqiy tabiati, ularni bekor qilish asoslari hamda majburiy ijro etish mexanizmlari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik normalari tahlil qilinib, amaliyotda uchraydigan muammolar ochib berilgan. Tadqiqot natijasida hakamlik tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *hakamlik sudi, nizolashish, majburiy ijro etish, bekor qilish asoslari, vakolatli sud, protsessual aloqadorlik.*

ABSTRACT

This article is devoted to the study of the role of competent courts in disputing and enforcing arbitral awards. It analyzes the legal nature of arbitral awards, the grounds for their annulment, as well as the mechanisms for their compulsory enforcement. Furthermore, the article examines international legal instruments and national legislation, identifying practical issues arising in their application. As a result of the research, proposals aimed at improving the effectiveness of the arbitration system have been developed.

Keywords: *arbitration, arbitral award, dispute, enforcement, grounds for annulment, competent court, procedural relationship.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению роли компетентных судов в процессе оспаривания и исполнения решений третейских судов. В ней анализируются правовая природа решений третейских судов, основания их отмены, а также механизмы их принудительного исполнения. Кроме того, в статье проводится анализ международных правовых актов и норм национального законодательства с выявлением проблем, возникающих на практике. По результатам исследования разработаны предложения, направленные на повышение эффективности третейской системы.

Ключевые слова: третейский суд, оспаривание, принудительное исполнение, основания отмены, компетентный суд, процессуальная взаимосвязь.

KIRISH

Bugungi zamonaviy dunyoda demokratik fuqarolik jamiyatlarining shakllanib borishi natijasida bozor iqtisodiyoti ham rivojlanib bormoqda. Bu kabi ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi nizolarni muqobil hal etish usullariga boʻlgan ehtiyojni ham tobora ortirmoqda. Jumladan, nizolarni muqobil hal qilish vositasi sifatida hakamlik sudlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hakamlik sudlari (arbitraj) bugungi kunda xalqaro miqyosda nafaqat nizolarni hal qilish vositasi balki vakolatli sudlar bilan teng darajadagi tizim sifatida eʼtirof etilmoqda.

Mustaqillikka erishganimizdan soʻng yurtimizda barcha sohalarda jiddiy oʻzgarishlar roʻy berdi. Shu jumladan, sud tizimi tubdan isloh qilinib, hakamlik sudlarining huquqiy maqomi qonunchilik tizimimizda belgilab qoʻyildi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 55-moddasida Har kim oʻz huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli¹ deb belgilanishi ham fuqarolik jamiyatining institutlari ahamiyatini oshiradi. Hakamlik sudlari nizolarni muqobil hal etish usuli sifatida vujudga kelgan muammoni tez va samarali hal etuvchi nodavlat organ hisoblanadi.

Xususan, bugungi kunda Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 30-oktabrdagi 235-son qarori bilan tasdiqlangan Hakamlik sudlari hisobini yuritish tartibi toʻgʻrisidagi nizomiga² muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasida 2021-yil holatiga koʻra 252 ta doimiy faoliyat olib boruvchi hakamlik sudlari oʻz faoliyatlarini amalga oshirish kelmoqda. Oliy Majlis Senatining 2025-yil 18-dekabrdagi yalpi majlisida Hakamlik sudlari faoliyati yanada takomillashtirilishi hamda byudjet intizomi kuchaytirilishi munosabati bilan “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonun muhokama qilindi. Ushbu qonun qabul qilinishi natijasida hakamlik sudlarini tashkil etish va sudyalik vazifasini bajarish uchun qoʻshimcha talablar belgilanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hakamlik sudlari va vakolatli sudlari oʻrtasidagi protsessual munosabatlarning jumladan, hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari boʻyicha nizolashish va ijro etish jarayoning huquqiy asoslarini tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

² <https://lex.uz/uz/docs/-1405183>

Hakamlik sudlari va vakolatli sudlar o'rtasidagi protsessual munosabatlarning asosiy normativ manbai - "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonun, Fuqarolik protsessual kodeksi hamda Iqtisodiy protsessual kodeks normalaridir. Protsessual munosabatlarning huquqiy tabiati shundan iboratki, hakamlik sudlari davlat sud tizimiga kirmasa-da, ularning qarorlari davlatning majburiy ijro mexanizmi orqali ta'minlanadi. Bu esa hakamlik muhokamasining avtonomligini saqlagan holda, davlat sudlari tomonidan protsessual nazorat va ko'mak ko'rsatish institutini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari bo'yicha nizolashish va ijro etish jarayonida vakolatli sudlarning ishtirokini ochib berishda Y.G.Streltsova, A.Pleshanov, Alan Redfern, M.Rozengard va boshqa olimlarning qarashlari atroflicha o'rganildi.

NATIJARLAR

Hakamlik sudlari qarorlarini bekor qilish va majburiy ijro etish jarayonida vakolatli sudlarning muhim huquqiy va protsessual funksiyalarni bajaradi. Xususan, vakolatli sudlar hakamlik qarorlarining qonuniyligini ta'minlash, taraflar huquqlarini himoya qilish hamda qarorlarning majburiy ijrosini kafolatlashda asosiy o'rin tutadi.

Hakamlik qarorlarini bekor qilish va ijro etish bilan bog'liq protsessual mexanizmlar milliy qonunchilikda belgilangan tartib asosida amalga oshirilishi hakamlik institutining barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qilishiga olib keladi. Xususan, iqtisodiy sudlar tomonidan hakamlik muhokamasi bilan bog'liq ishlarni ko'rishda qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari yuzasidan "Iqtisodiy sudlar tomonidan hakamlik muhokamasi bilan bog'liq ishlarni ko'rishda qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining qarorida ushbu jarayonlarning protsessual tartibi va sudlar vakolatlari aniqlashtirib berilgan.

Xalqaro tajriba tahlili esa hakamlik sudlari va vakolatli sudlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik muvozanatli tarzda yo'lga qo'yilganda hakamlik tizimining samaradorligi oshishini ko'rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari hakamlik sudlari qarorlarini bekor qilish va ijro etishda vakolatli sudlarning ishtiroki arbitraj institutining samarali ishlashini ta'minlovchi muhim omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot natijalari hakamlik sudlari qarorlarini bekor qilish va majburiy ijro etish jarayonida vakolatli sudlarning o'rni muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Hakamlik muhokamasi mustaqil institut sifatida e'tirof etilsa-da, uning

samarali faoliyati ko'p jihatdan davlat sudlari bilan o'zaro aloqadorlik darajasiga bog'liq.

“Hakamlik sudi to'g'risidagi” Qonunning 47-moddasida hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish asoslari keltirilgan bo'lib, ular quyidagicha:

hakamlik bitimining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha haqiqiy emasligini;

hakamlik sudi hal qiluv qarorining hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to'g'ri kelmaydigan nizo bo'yicha chiqarilganligini yoxud unda hakamlik bitimi doirasidan chetga chiquvchi masalalar bo'yicha xulosalar mavjudligini. Agar hakamlik sudining hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo'yicha xulosalarini bunday bitim bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo'yicha xulosalaridan ajratib olish mumkin bo'lsa, hakamlik sudi hal qiluv qarorining faqat hakamlik bitimi bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo'yicha xulosalari bo'lgan qismi bekor qilinishi mumkin;

hakamlik sudining hal qiluv qarori ushbu Qonun 10-moddasining birinchi va uchinchi qismlari talablari buzilgan holda chiqarilganligini;

hakamlik sudi tarkibi yoki hakamlik muhokamasi ushbu Qonunning 14, 15, 16 va 25-moddalari qoidalariga muvofiq emasligini;

hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflarining qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo'lsa, o'sha taraf hakamlik sudylarini saylash (tayinlash) to'g'risida yoki hakamlik sudining majlisi bo'ladigan vaqt va joy haqida tegishli tarzda xabardor qilinmaganligini hamda shu sababli u hakamlik sudiga o'z tushuntirishlarini taqdim etolmaganligini.

Agar hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqilgan nizo qonun hujjatlariga muvofiq hakamlik muhokamasining predmeti bo'lmasa, hakamlik sudining hal qiluv qarori vakolatli sud tomonidan bekor qilinishi kerak³.

Hakamlik sudlari qarorlarini bekor qilish asoslari bilan bir qatorda, ularni majburiy ijro etish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki hakamlik qarorining amaliy ahamiyati aynan uning ijro etilishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, vakolatli sudlar hakamlik qarorlarini tan olish va majburiy ijroga qaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Iqtisodiy protsessual kodeksining 29-bobi⁴ va Fuqarolik protsessual kodeksining 40-bobi⁵ bevosita hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishlarni yuritish masalasiga bag'ishlanadi.

³ O'zbekiston Respublikasi “Hakamlik sudlari to'g'risida” gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-1072079#-1072420>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-3523891#-3532576>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-3517337#-3525103>

Hakamlik sudining hal qiluv qarori bo'yicha nizolashish va ijro varaqasi berish tartibi 1958-yilgi Nyu-York konvensiyasida ham mustahkamlangan. Ushbu konvensiyaga muvofiq, konvensiyada ishtirokchi davlatlar sudlari hakamlik qarorlarini tan olish va ijro etishni ta'minlash majburiyatini oladi. Shu bilan birga, sudlar tomonidan rad etish faqat qat'iy belgilangan asoslar mavjud bo'lgandagina yo'l qo'yiladi. Bu esa sudlarning vakolatlarini aniq chegaralab, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarining barqarorligini ta'minlaydi.

Rivojlangan davlatlar amaliyotida esa xususan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida sudlar hakamlik qarorlarini ijro etishda, odatda, ularning mazmuniga aralashmaydi hamda faqat protsessual talablarning bajarilganligini tekshirish bilan cheklanadi. UNCITRAL Model Qonuniga ko'ra, vakolatli sudlar hakamlik qarorlarini ko'rib chiqishda ularning mazmunini qayta baholash huquqiga ega emas, balki faqat protsessual talablarning bajarilganligini tekshiradi. Bu esa arbitraj muhokamasining mustaqilligini ta'minlash hamda sudlar aralashuvini minimal darajada saqlashga xizmat qiladi⁶. Shuningdek, mazkur model qonunda hakamlik qarorlarini bekor qilish asoslari ham qat'iy belgilangan bo'lib, bu sudlar tomonidan turlicha talqin qilish ehtimolini kamaytiradi. Natijada, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarining barqarorligi va ijro etilish darajasi oshadi.

Bunday yondashuv hakamlik institutining mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari hakamlik sudlari qarorlarini bekor qilish va majburiy ijro etish jarayonida vakolatli sudlarning muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Hakamlik muhokamasi mustaqil nizolarni muqobil hal etish usuli sifatida e'tirof etilsada, uning samarali faoliyati ko'p jihatdan davlat sudlari bilan o'zaro protsessual aloqadorlik darajasiga bog'liqdir.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish va ijro etish mexanizmlari milliy qonunchilik asosida tartibga solingan bo'lib, vakolatli sudlar ushbu jarayonlarda qonuniylikni ta'minlash, taraflar huquqlarini himoya qilish hamda qarorlarning majburiy ijrosini kafolatlashda asosiy rol ni bajaradi.

Shuningdek, xorijiy tajriba tahlili hakamlik sudlari va davlat sudlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar aniq huquqiy chegaralar asosida tartibga solingan hollarda arbitraj tizimining samaradorligi oshishini ko'rsatdi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy munosabatlar barqarorligi va investitsiyaviy muhit yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

⁶ UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985), with amendments as adopted in 2006

Shu bilan birga, hakamlik sudlari qarorlarini bekor qilish va ijro etish jarayonlarini yanada takomillashtirish, ularni qo‘llash amaliyotini izchil rivojlantirish hamda sudlar faoliyatida yagona yondashuvni ta‘minlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, hakamlik sudlari qarorlarini bekor qilish va ijro etishda vakolatli sudlarning samarali ishtiroki arbitraj institutining rivojlanishi va uning huquqiy tizimdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Плешанов А.Г. Диспозитивное начало в сфере гражданской юрисдикции: проблемы теории и практики.
2. Стрельцова Е.Г. Некоторые аспекты проблемы реформирования системы разрешения споров в сфере гражданской юрисдикции.
3. Redfern A., Hunter M. Law and Practice of International Commercial Arbitration.
4. Розенберг М.Г. Правовое регулирование отношений в сфере третейского разбирательства: материальные и процессуальные аспекты. – М.: Юстицинформ.
5. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985), with amendments as adopted in 2006
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
7. Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 30-oktabrdagi 235-son qarori bilan tasdiqlangan Hakamlik sudlari hisobini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomi <https://lex.uz/uz/docs/-1405183>
8. O‘zbekiston Respublikasi “Hakamlik sudlari to‘g‘risida” gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-1072079#-1072420>
9. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-3517337#-3525103>
10. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-3523891#-3532576>